

**NEMISCHA-O'ZBEKCHA SIFAT LEKSEMALAR TARJIMASI G
HUSUSIDA**

Axmedova Muattar Ziyoddinovna, NamDChTI magistranti

***Annotatsiya:** Ushbu maqolada nemis va o'zbek tillarida mavjud ayrim sifat leksemalarining tarjimada berilishi, ekvivalentlik va adekvatlik hususida fikr yuritildi va tahlil qilindi.*

***Kalit so'zlar:** sifat leksema, adekvatlik, ekvivalent, tarjima, lisoniy matn, asl nusxa.*

***Аннотация:** В данной статье приведены в переводе некоторые качественные лексемы немецкого и узбекского языков, рассмотрены и проанализированы эквивалентность и адекватность.*

***Ключевые слова:** лексема качества, адекватность, эквивалентность, перевод, лингвистический текст, оригинал.*

***Abstract:** This article provides translations of some high-quality lexemes of the German and Uzbek languages, considers and analyzes the equivalence and adequacy.*

***Key words:** quality lexeme, adequacy, equivalence, translation, linguistic text, original.*

Tarjimashunoslikda ekvivalentlar (Ekvivalent lotincha. Aequivalens – teng baholi, teng qiymatli degan ma'noni anglatadi. Asliyat va tarjima matnidagi lisoniy birliklarning o'zaro to'la yoki qisman mos kelishi¹ ikki xil ma'noda tadqiq etiladi: tor va keng. Tor ma'nodagi ekvivalentlik faqat leksemalar orasida o'rganilishini anglatadi, keng ma'noda u butun bir gap yoki matn doirasidagi tadqiqini bildiradi. Soxta ekvivalentlik tor ma'nodagi ekvivalentlik bilan bog'liq. Chunki soxta ekvivalentlar ham ma'lum bir konteks tarkibida qo'llanilgan leksemalar doirasida

¹ Sodiqov Z., Abdurahmonova D. Tarjimashunoslik terminlarining ko'ptilli lug'at-ma'lumotnomasi. – Namangan, 2017. – B. 24

tadqiq etiladi. “Shaklan o‘xshagani bilan ma‘nolari bir biridan jiddiy farq qiladigan so‘zlar “soxta ekvivalentlar” deb qabul qilingan”.² “Asl nusxa va tarjima o‘rtasidagi asosiy tafovutlar, avvalo, ikki til o‘rtasidagi farqlarda namoyon bo‘ladi. Ba‘zi so‘zlar bir tilda boshqa ma‘noda, ikkinchi tilda boshqa ma‘noda kelishi mumkin.

Bu xususda tadqiqot olib borgan taniqli tarjimashunos A.V.Fyodorovning turli tillar doirasidagi faqat ayrim so‘zlarninggina fonetik jihatdan o‘xshashligini soxta ekvivalent deb qabul qilinadi – degan fikriga qo‘shilmagan G‘.Salomov bu termini tuzilishi jihatidan bir-biriga o‘xshash, ammo ma‘nosi jihatidan birbiridan jiddiy tafovut qiladigan, ba‘zida bir-biriga zid bo‘lgan frazeologik iboralarga nisbatan qo‘llaydi.³

Ekvivalentlik, ayniqsa, tarjimada so‘zlarni qiyoslash va ularni bir-biriga mosligi muhim. Shu maqsadlar uchun o‘rganilayotgan so‘zlarning ekvivalentliklari, ya’ni boshqalariga teng qiymatli, qiyoslash etaloni bo‘lib xizmat qiladigan so‘zlar qo‘llaniladi. Tarjima qilinayotgan so‘zlar qiyoslanadigan tarjima ekvivalentliki asosan tarjima qilingan so‘z hisoblanadi.

Nemis tilidagi **klein** sifat leksimasiga *winzig, jung, kaum, einfach* kabi sifat leksemalari ekvivalent bo‘ladi. Yana misollar keltiramiz. Masalan.

- 1) klein (kichik) – winzig (kichik), jung (yosh), kaum (zo‘rg‘a), einfach (oddiy).
- 2) schön (chiroyli) – ausgezeichnet (a‘lo darajada), stattlich (salobatli), attraktiv, charmant, hübsch -(chiroyli).
- 3) schwach (zaif) – dünn (ozg‘in), wenig (oz), dumm (ahmoq), energielos, kraftlos, flau, kränklich – (zaif).
- 4) reich (boy) – vermögend, wohlhabend (boy, badavlat), aufwendig (yetarli), glanzwahl (porlash).
- 5) alt (eski) – gebraucht (qo‘llanilgan), nich mehr neu (yangi emas), vieljährig (ko‘p yillik), angealter, gealtert, nicht mehr jung (qari).

Bu kabi ekvivalentliklar bilan matinni to‘liq aks ettirib berish va asl nusxa

² Salomov G‘. Til va tarjima – T.: Fan, 1966 – B. 277

³ Ochilov E. Tarjima nazariyasi (O‘quv qo‘llanma). – T.: 2014. B. 51

matning mazmunini saqlagan holda tarjima qilishga erisha olamiz.

Adekvat-(lot. “adequatues”, “o'xshash”, “to‘la mos”, “bir xil” degan ma‘nolarni anglatadi) tarjima mukammal tarjima hisoblanadi.⁴ Masalan, *sonnig – quyoshli, problemlos – muammosiz, freundlich - do‘stlik, städtisch – shaharlik*. Yirik tarjimashunos olimlar Ya.L. Resker, A. Shveytser, L. Barxudarov va V.Komissarovning lingvistik tarjima nazariyasiga oid bo‘lgan adekvat va ekvivalent tarjima haqida quyidagi fikrlarni aytadilar. Adekvat tarjima ekvivalentlikning oliy darajasi bo‘lib, unda asliyatning janriy - stilistik talablari, barcha lisoniy va g‘ayrilisoniy (ekstralingvistik) omillar hisobga olingan, maksimal darajada hissiyot va asliyat va asliyat ruhi saqlangan bo‘ladi. Har bir adekvat tarjima, albatta, ekvivalent bo‘adi, ammo har bir ekvivalent tarjimani adekvat deb bo‘lmaydi. Tarjimashunoslikda adekvat va ekvivalent tushunchalarini ko‘plab uchratishimiz mumkin. Odatda, badiiy tarjimada bir tildagi frazeologik iboralarni ikkinchi tilga ekvivaletlar yordamida tarjima qilish adekvat tarjima yaratishning eng samarali yo‘li hisoblanadi. Chunki ekvivaletlar iboralar ma‘nolaridan tashqari ularning obrazli asoslari ham bir-biriga o‘xshaydi. Bu esa ularning stilistik funksiyasi jihatdan bir-biriga ko‘proq mos bo‘lishini ta‘minlaydi. Shuning uchun ham tarjibali tarjimonlar o‘z ishlari davomida ko'proq bu usulni qo'llashga harakat qiladilar. Biroq ekvivalentlar yordamida tarjima qilinganda ham originaldagi tarjima tilidagi iboralar ma'nolarini, ular o'tab kelayotgan stilistik funksiyalarni chuqur tushunmasdan qo'llash adekvatlikning yaralmay qolishiga sabab bo'lishi mumkin.

Tarjimada asliyatdagi kabi estetik ta‘sirni hosil qilish, badiiy obrazni to‘liq gavdalantirish ayrim hollarda tarjimonni jumla qurilishlarini o‘zgartirishga, tarjimaning turli usullarini qo‘llashga majbur qilishi mumkin. Biroq ekvivalentlik tamoyillarini buzishi va holatliy manzaradan uzoqlashishi mumkin emas.

Masalan nemischa “*verwöhnt*” so‘zi o‘zbekcha “*erka*” so‘zlaridan shakl jihatidan farq qiladi-yu, ammo ma‘no jihatidan unga o‘xshash. (Hozircha biz turli tillarga oid bo‘lgan birliklarning ma‘no jihatidan odatda to‘liq emas, balki qisman o‘xshash bo‘lishlarini inobatga olmayapmiz. Masalan, nemischa “*verwöhnt*” so‘zi

⁴ Alekseeva .I.S.»Tarjima nazariyasining asoslari». S.Pb... 2000 yil
www.tadqiqotlar.uz

“erka” maʼnosidan tashqari yana “eskirgan tantiq, qarovsiy, tashlab qoʻyilgan” degan maʼnolarga ham ega. Bunday hodisa, yaʼni turli tillarga mansub birliklarning maʼnolarini qisman oʻxshashligi tarjima jarayonini qiyinlashtirsa ham, ammo uning mohiyatini oʻzgartirmaydi. Masalan *Dein Bengel ist doch total verwönt*.

Shu asosda quyidagini taʼkidlab oʻtishimiz mumkin. Nemischa “*verwöhnt*” soʻzini oʻzbekcha “erka” soʻzi bilan almashtirganimizda tarjima jarayoni sodir boʻladi, chunki shakl jihatidan farq qiladigan bu soʻzlar maʼno jihatidan oʻxshash yoki ekvivalentdir. Aslida esa, minimal matn (nutq asari) sifatida *gap* xizmat qilishi sababli, tarjima jarayoni albatta *kamida bitta gap* (bir necha gap) doirasida sodir boʻladi. Turli tillarga mansub birliklarning maʼnolari bir-birlariga toʻgʻri kelmasliklari odatda gapda bartaraf etiladi.

Tarjimashunoslikning lisoniy muammolaridan biri oʻzbek tarjimashunosligida “soxta ekvivalentlar” nomini olgan boʻlib, tarjimashunoslikda bu tushuncha “yolgʻonchi soʻzlar”, “aldoqchi soʻzlar”, “tarjimonning soxta doʻstlari” deb, baʼzi manbalarda esa bu til hodisasini ifoda etish uchun boshqa terminlar: “tillararo omonimlar”, “tillararo analogizmlar”, “ohangdosh soʻzlar”, “aldoqchi soʻzlar” va boshqalar⁵ ham yuritiladi.

Nemis tilidan oʻzbek tiliga tarjima qilingan sifat leksemalari bir necha ekvevalentlarini keltra olamiz. Masalan

- 1) schlimm – yomon, nosogʻlom, surunkali kasal, tahdidli (jiddiy kasallik).
- 2) klein – kichik, ahamiyatsiz, yosh.
- 3) günstig – qulay, foydali, istiqbolli, hozir (kerakli vaqtda hozir), birovga hayrihoh
- 4) leicht – yengil (yuk), oson, kaloriyasi oz, hazm boluvchi.
- 5) alt – eski, katta (yoshga nisbatan)
- 6) einfach – oddiy, takrorlanmas, ahamiyatsiz.
- 7) billig – arzon, sifat jihatidan pastroq, tasavvurga ega boʻmagan.
- 8) mütig - jasur, botir, kuchli, qoʻrqmas.

⁵ Berdak Yusuf. *Önsöz // Turkcha-oʻzbekcha “aldoqchi” soʻzlar lugʻati*. – Toshkent: Voris-nashriyot, 2009. – B.5.
www.tadqiqotlar.uz

- 9) gleich – bir xil, teng, o'xshash
- 10) besitzend – (uyi) bor bo'lgan, hukumronlikka ega bo'lgan, eskirgan.

Xulosa qilib ta'kidlash joizki, sifatlarda bir necha turdagi ma'no belgilovchi trivial ekvivalentlik ham uchraydi. Mazkur til hodisalari fe'l-kesimning ekvivalentligiga nisbatan kam tadqiq etilgan. Chet tilini o'rganishda ushbu bo'limda keltirilgan misollar ahamiyatlidir. Bundan tashqari, sifatlarning valentligi, ular hosil qiladigan konstruktsiyalar omonimiya muammolarini o'rganishda ham yordam beradi.

Umumiy xulosa shuki, bu turkumga oid so'zlar uzoq tarixiy taraqqiyotni boshdan kechirgan. Sifat so'z turkumiga oid so'zlar atash ma'nosiga ko'ra belgi, aniqrog'i, turg'un, barqaror belgi ifodasiga ega ekanligiga yuqorida ko'plab misollar berilib o'tildi va sifat morfologik jihatdan yasalish tizimiga ega ekanligi haqida ham aytiladi. Shuningdek, bu so'z turkumiga oid so'zlar morfologik jihatdan shaklan o'zgaradi va darajalanadi. Bundan tashqari sifatning taraqqiyoti boshqa turkumlari bilan uzviy bog'langan. Fikrimizcha, Tarjimada sifatlarnig aynan ekvivalenti berilsa maqsadga muvofiq keladi. Agar tarjima qilinayotga tilde asliy matn sifatlariga mos sifat bo'lmasa izohlab ketish lozim deb o'ylaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Alekseeva .I.S.»Tarjima nazariyasining asoslari». S.Pb... 2000 yil
2. Berdak Yusuf. Önsöz // Turkcha-o'zbekcha “aldoqchi” so'zlar lug'ati. – Toshkent: Voris-nashriyot, 2009.
3. Ochilov E. Tarjima nazariyasi (O'quv qo'llanma). – Toshkent: 2014.
4. Salomov G'. Til va tarjima – Toshkent: Fan, 1966.
5. Sodiqov Z., Abdurahmonova D. Tarjimashunoslik terminlarining ko'ptilli lug'at-ma'lumotnomasi. – Namangan, 2017.